



TURG'UN O'XSHATISHLAR – OLAMNI IDROK ETISH VOSITASI

Kazakov Ilxam Rozmamatovich

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
ikazakov1973@mail.ru.*

Annotatsiya: maqolada o'xshatishlar xalqning milliy tafakkur tarzi, idrok intizomini aks ettirishga xoslanganligi xususida so'z yuritilgan. Asosan, turg'un o'xshatishlar nutqning ta'sirchanligi va badiiy-uslubiy jihatdan mukammalligini ta'minlashda muhim ahamiyatga molik vosita ekanligi haqidagi mulohazalar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: turg'un o'xshatish, individual o'xshatish, metafora, tafakkur, urf-odat.

Qadimgi davrda Aristotelning ta'kidlashicha, inson tashqi voqelikdagi narsa va hodisalarni o'xshata olish salohiyatiga egaligi tufayli jonivorlardan farq qilgan va o'zining dastlabki bilimlarini o'xshatishdan olgan [1, 20]. Uning fikriga ko'ra, inson o'z tafakkurini ishga solib, bir narsani ikkinchisi bilan qiyoslaydi va ularning o'xshash jihatlarini ajratishga e'tibor qaratadi. Bunda har qanday voqelik boshqasiga nisbatan qiyoslanib, umumiy yoki xususiy sifatlar belgilanadi. Yana bir manbada keltirilishicha, insonni hayvondan ajratib turuvchi ratsionallikning birinchi pog'onasida aqliy idrok asosida o'xshatish va farqlay olish qobiliyati yotadi. Uning yordamida hissiy idrokdan tafakkurga qarab boriladi [2, 103].

Darhaqiqat, hayotdagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi ular orasida tafovutlar mavjudligi isbotidir. O'xshatishlar xalqning o'ziga xos ko'rish va idrok yo'sini, obrazli tafakkur va tahayyul intizomini aks ettiradi [3, 21]. Tadqiqotchilar fikricha, ijodkorlar obyektiv olamdagi narsa-hodisalar o'rtasidagi komparativ aloqalarni obrazli qiyoslash asosida son-sanoqsiz va xilma-xil o'xshatishlar yaratsalar-da, ularning juda ham oz qismi tilda turg'unlashadi, chunki bunday o'xshatishlar tilda xalqning tajribalari, urf-odatlari, madaniyati va tarixining o'ziga xosliklariga muvofiq saralanadi, ana shunga ko'ra ham turg'un o'xshatishlar milliy spetsifikdir [4, 5]. To'g'ri qayd qilinganidek, turg'un o'xshatishlar til tizimining barqaror birligi sanaladi. Leksik birliklardagi kabi ularga ham umumiylik, tayyorlik va obrazlilik xususiyati xos.

Inson o'zi uchun oldindan tanish va yangi – notanish narsa-mohiyatlarning belgi-xususiyatlarini o'zidagi mavjud imkoniyat asosida



o‘zaro o‘xshashlik, bir-biriga monandlik orqali qiyoslaydi. Shubhasiz, bundan ko‘zlangan maqsad ana shu o‘xshashlik asosida so‘zlovchining mazkur obyektga subyektiv munosabatini ifodalash hisoblanadi [5, 19-24]. Masalan, *Nigora sovuqda qizarib, gul-gul yongan yuzlarini qoshiqdekka kaftlari bilan ishqalab kuldi* (O.Yoqubov) misolidagi *qoshiqdek* o‘xshatishining maqsadi kichiklik, ixchamlik, bejirimlikni ko‘rsatishgina emas, unga bo‘lgan ijobiy munosabatni ham ifodalashdir. Ushbu o‘xshatishda o‘zbeklarning milliy aksiologik nigohi muhrlangan [6, 105].

Avvalo, ta’kidlash o‘rinliki, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi. Nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu kabi madaniy birliklar o‘zida biror etnosga xos mentallikni, shuningdek, real voqelikni lison vositasida ifodalash darajasini ko‘rsatuvchi dalil hamdir. Ular o‘zida xalqning ijtimoiy, ma’naviy jihatdan rivojlanish bosqichlarini ham ko‘rsatadi [7, 15].

O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi [8, 20]. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda o‘z aksini topadi [9, 259]. Umuman, o‘xshatishlar insonning dunyoni anglashida muhim ahamiyatga ega.

O‘xshatishlarni shaxs va til jamoasidan alohida holda o‘rganish kutilgan natijani bermaydi. Quyidagi manbada aks etganidek, *chumolidek mehnatkash* o‘xshatishining muallifi millat (inson) ekan, demak, u insonning mehnatkashlik sifatini chumoliga qiyoslash uchun asos bor, deb hisoblaydi. Binobarin, turmush sharoitlari, madaniyatda turg‘unlashgan me’yorlar tufayli narsa-hodisalarga turlicha etalonlar tanlanadi. Masalan, beozorlik xususiyati uchun etalon sifatida rus lingvomadaniyatida *buzoqcha (telyonok)*, *go’dak (rebyonok)*, *bola (ditya)* kabilar, o‘zbek lingvomadaniyatida esa *musicha*, *go’dak* va *farishta* turg‘unlashgan [10, 51-52].

O‘zbek tilidagi *musichaday beozor* (odam) o‘xshatishini boshqa tillarda uchratish qiyin. *Musichaday* o‘xshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud, unda «beozorlik» belgisining o‘zbekka xos ta’kidi qabariq o‘z ifodasini topgan. Musichaga xos yumshoq tabiat va harakat o‘zbek idrokida ijobiy talqin topishidan tashqari bu mushfiq qush haqidagi islomiy rivoyat ham *musichaday* etalonining an’anaga kirishida asos bo‘lganligi ehtimoldan holi emas. Ana shu tariqa *musichaday beozor* turg‘un o‘xshatishi beozorlikning



o'zbekcha o'lchovi sifatida tamoman milliy obraz maqomini olgan [11, 4].

Turg'un o'xshatishlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga molik. Sababi, «turg'un o'xshatishlar milliy ong jumbog'ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi», «dunyoni o'ziga xos, milliy tarzda ko'rish o'xshatish semantikasida aks etadi» [12, 133-134]. Bu xildagi o'xshatishlar dunyo tillarining deyarli barchasida turli miqdorda bor va ular yagona komparativ model asosida aytarli bir xil lisoniy-mantiqiy tarkibda tuzilgan bo'ladiki, bu holat mazkur iboralarni keng tarqalgan lisoniy universalialar qatoriga kiritish uchun asos bo'ladi. Ammo bunday o'xshatishlar til egalarining dunyoni milliy ko'rishi va milliy anglashini aks ettirganligi uchun har bir tilda g'oyat betakror va benihoya unikaldir [13, 20].

Aytish muhimki, turg'un o'xshatishlar til sistemasidagi frazeologik iboralarning alohida, o'ziga xos bir guruhini tashkil etadi va ular aytarli tayyor holda nutqqa olib kiriladi. Bu singari o'xshatishlar turli darajadagi ekspressiyaga ega bo'lgan birliklar sifatida nutqning ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida so'zlovchining kommunikativ-estetik niyatiga uyg'un holatda tanlanib, nutqiy jarayonda qo'llaniladi. Quyidagi bir nechta misolda ham buni yaqqol ko'rish mumkin: *Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma'lum* (Cho'lpon, Kecha va kunduz). *Bolalari... qo'rqqanidan baqadek qotib qolishdi* (M.Nizanov, Oxirat uyqusi) [14, 21-22].

Aslida, o'xshatish va metafora bir-biriga juda o'xshash hodisalar ekanligi ta'kidlanadi. Bunda o'xshatish va metafora asosida qiyoslash yotishi nazarda tutiladi. Qayd qilinishicha, metafora ham o'xshatish, faqat u – yashirin yoki qisqargan o'xshatishdir [15, 146]. Bu holatni Aristotel o'z davrida ilg'ab, ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan. Uning fikricha, o'xshatish ham metaforadir, chunki ular o'rtasida arzimagan farq mavjud xolos. Masalan, *u sherday tashlandi* tarzidagi ifodada o'xshatish bor, agar uni *sher tashlandi* shakliga o'zgartirilsa, metafora hosil bo'ladi [16, 134]. Ayrim manbalarda «metafora-o'xshatish» termini qo'llanganligi ham kuzatiladi [17, 200].

Turg'un o'xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikasidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tilda tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi [18, 20]. Shunga muvofiq, turg'un o'xshatishlar o'zbek tilining tamomila o'ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an'alarining betakror ko'zgusi, bejirim va ta'sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas manba, avlodlar o'rtasidagi obrazlar vorisiyligini ta'minlashga xizmat qiladigan g'oyat muhim



vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lingvokulturologik va lingvopoetik qimmatga ega [19, 16]. Xullas, dunyoni bilishda o'xshatishlar, umuman qiyos favqulodda muhim o'rin tutadi. Ammo dunyoni har qanday bilish aksiologiyadan, ya'ni bilingan narsani biron-bir tarzda baholashdan holi bo'lishi mumkin emas [20, 5]. Zotan, bugun inson ongining aksiologikligi haqidagi qoida e'tirof etib bo'lingan va unga ko'ra muayyan narsa-qadriyat anglanar ekan, unga nisbatan insonning, demakki, jamiyatning bahosi, munosabati ham u yoki bu tarzda ifodalanadi, ana shu jihatdan lingvistika va aksiologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir [21, 17]. Shuni ham unutmaslik kerakki, o'xshatishni baho kategoriyasidan ajratib tasavvur qilib bo'lmaydi. O'sha o'xshatish va baholash tushunchalari bir-biri bilan behad zich munosabatdadir. Chunki odam atrofidagi olamni, shuningdek, o'zini qiyoslash-o'xshatish va baholash yo'li bilan anglab boradi [22, 131].

Xullas, turg'un o'xshatishlarning nutq jarayonidagi ahamiyati nihoyatda kattadir. Ular nutqiy vaziyatda qo'llanilib, uning badiiy-uslubiy jihatdan mukammal bo'lishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra turg'un o'xshatishlar qadimgi davrlardan-oq, olamni idrok etishda alohida e'tiborga loyiq vosita sifatida baholangan. Turg'un o'xshatishlarga xos bo'lgan eng muhim xususiyat shuki, tilda ulardan tayyor holda foydalaniladi. Ana shunday barqaror birlik darajasida qaror topganligi va nutq ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan turg'un o'xshatishlar frazeologizmlar bilan hamohangdir. Eng muhimi, o'sha turg'un o'xshatishlarda milliy-madaniy ma'no voqelanganligidir. Ular o'zida aks etgan mazmun orqali xalqimizning o'tmishiga daxldor madaniyat, an'ana-yu qadriyatlardan guvohlik beradi. Demak, turg'un o'xshatishlar tilning imkoniyatlarini namoyish etishga ixtisoslashgan o'ziga xos va betakror vosita bo'lishi bilan birga xalqimizning asrlar silsilasiga bardosh berib, shu kunga qadar yetib kelgan milliy idrok tarzini aks ettirishga xoslangan birliklar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Поэтика. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
2. Усмонов Ф. Қиёслашнинг олам лисоний манзараси шаклланишидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2017. –№6.
3. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2011. –№3.
4. Огольцев В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический). –М.: Русские словари. АСТ. –Астрель, 2001.
5. Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2013.
6. Усмонов Ф. Кўрсатилган мақола.



7. Худойберганава Д. Ўхшатиш мазмунини ифодаловчи матнлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 6.
8. Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола.
9. Маҳмудов Н.М. Семантико-синтаксическая ассиметрия в простом предложении узбекского языка: Дис ... док. филол. наук. –Ташкент, 1984.
10. Усмонов Ф. Турғун ўхшатишларнинг айрим хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2019. –№ 4.
11. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2013. –№ 1.
12. Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: ACADEMIA, 2001.
13. Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеогрфии: Автореф. дис...канд.филол.наук. –Краснодар, 1999.
15. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2011. –№3.
16. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –Л.: Просвещение, 1973.
17. Аристотель. Риторика // Античные риторика. –М.: МГУ, 1978.
18. Григорьев В.П. Поэтика слова. –М.: Наука, 1979.
19. Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола.
20. Маҳмудов Н., Худойберганава Д. Кўрсатилган манба.
21. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2013. –№ 1.
22. Серебренникова Е.Ф. Аспекты аксиологического лингвистического анализа // Лингвистика и аксиология. Этносемиотрия ценностных смыслов. –М.: Тезаурус, 2011.
23. Михнюк К.В. О взаимосвязи категорий сравнения и оценки // Ярославский педагогический вестник, 2011. Том I (Гуманитарные науки). –№ 1.